



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK  
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

## “ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI”

mavzusidagi III xalqaro ilmiy-nazariy va  
amaliy anjuman materiallari



2026-yil 12-fevral





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI  
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI**

**BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI**

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR  
MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA  
MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI**

III xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy anjuman materiallari

**Toshkent – 2026**



## V SHO‘BA. ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR ADABIY-ILMIY MEROSINING FILOLOGIK ASPEKTI

### “BOBURNOMA”DAGI BA‘ZI SO‘ZLARNING MA‘NO KO‘LAMI SEMANTIC SCOPE OF CERTAIN WORDS IN THE “BOBURNOMA”

**Baxtiyor Abdushukurov,**

filologiya fanlari doktori, professor

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti

e-pochta: [dr.b.abdushukurov@gmail.com](mailto:dr.b.abdushukurov@gmail.com)

DOI: [10.52773/tsuull.conf.2026./ISMK9826](https://doi.org/10.52773/tsuull.conf.2026./ISMK9826)

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada “Boburnoma” matnidagi ayrim so‘zlarning ma‘no ko‘lamini diaxron jihatdan tahlil qilinadi, til lug‘at boyligini tarixiy nuqtayi nazardan o‘rganish xalq tarixi bilan uzviy bog‘liqligi asoslab beriladi. Qiyosiy tahlil natijasida ayrim so‘zlar shakl va ma‘nosini saqlab qolgan bo‘lsa, boshqalari qisman o‘zgarib, hozirgi til va shevalarda yashab kelayotgani aniqlangan. Shuningdek, asarda ma‘no kengayishi va torayishi kabi semantik jarayonlar tilning ichki qonuniyatlari asosida yuzaga kelgani ko‘rsatildi.*

**Kalit so‘zi:** “Boburnoma”, til oilasi, so‘z, sinonim, ma‘no, ma‘no kengayishi, ma‘no torayishi.

**Annotation.** *This article analyzes the semantic scope of certain words in the text of Boburnoma from a diachronic perspective and substantiates that studying lexical richness from a historical viewpoint is closely connected with the history of the people. The comparative analysis reveals that some words have preserved their form and meaning, while others have undergone partial changes and continue to exist in the modern language and its dialects. It is also shown that semantic processes such as semantic expansion and narrowing in the work have developed in accordance with the internal laws of language.*

**Keywords:** *Boburnoma, language family, word, synonym, meaning, semantic expansion, semantic narrowing.*

Ulug‘ sarkarda, buyuk adib, mashhur tarixchi, adabiyotshunos va tilshunos sanalgan Zahiriddin Muhammad Bobur turkiy va forsiy tilng keng qo‘llanishiga ahamiyat qaratdi, turkiy adabiyotining ravnaqiga imkoniyat yaratib berdi. U va uning farzandlari davrida Hindistonda turkiy tilda yirik tarixiy, badiiy asarlar yaratildi. Bobur o‘z asarlarining ko‘pini o‘sha tuproqda ekanligi chog‘ida bitdi.

«Boburnoma», «Mubayyan», she‘riy devoni ham o‘sha chog‘lar Boburning saltanati davrida yozib tugallandi. «Mubayyan», she‘riy devoni ham o‘sha chog‘lar Boburning saltanati davrida yozib tugallandi. Boburdan so‘ng turkiy da ijod etish an‘anasini Komron Mirzo va boshqalar davom ettirdi. Hindistonda

yaratilgan badiiy adabiyot o'zbek adabiyoti tarixi, adabiy tili («chig'atoy turkchasi»)ning noyob namunalari [Sodiqov, 2020:155].

Boburiylar saltanatida Navoiy tili o'zbek tilining eng yuksak namunasi hisoblangan. Navoiy she'riyati o'zbek adabiyotining toji sanalgan. Binobarin, o'zbek adabiy tilining taraqqiyotida Bobur Alisher Navoiy dahosidan so'ng juda katta xizmat qildi. Xususan, umumxalq tilini mukammal egallab, adabiy til bilan umumxalq tili o'rtasidagi uzilishni bartaraf etishga, ularni bir-biriga yaqinlashtirishga ham nazariy, ham amaliy jihatdan jiddiy e'tibor berdi. Qolaversa,

Bobur hazrat «Boburnoma» asarida uch oilaga kiruvchi bir necha tilni solishtirib o'rganishning ajoyib namunasi ko'rsatib, dunyo tilshunosligida, ya'ni umumtilshunoslikda yangi nazariyaga asos solgani ilm ahliga yaxshi ma'lim. Chunonchi, hind-yEvropa tillari oilasiga mansub bo'lgan ikki guruh -hindistoniy tillari guruhidagi fors va afg'on; xom-som tillari oilasiga mansub som guruhiga kiruvchi arab tilini turkiy tillarga xos bo'lgan o'zbek tili bilan solishtirib o'rgandi.

Darhaqiqat, “Boburnoma” asari XV asr oxiri - XVI asr boshlaridagi o'zbek tili taraqqiyotini o'rganish uchun qimmatli manba bo'lib, uning so'z boyligini qadimgi turkiy va eski turkiy til yodgorliklari lug'at tarkibi bilan qiyosiy o'rganish til tarixininng eski holatidan voqif bo'lishga, ular orasidagi yaqinlik hamda farqlarni aniqlashga ko'malashadi. Aytish joizki, mazkur obidalar turli davr va sharoitlarda yaratilgan. Shu bois, tilda o'zgarishlar yuz bergani tabiiy. Chunki bu vaqt mobaynida til o'zining taraqqiyot qonuniyatlariga muvofiq fonetik, leksik, morfologik, sintaktik jihatdan o'zgarishga uchragan, takomillashgan, boyigan. Buni quyida amalga oshirilgan ayrim tahlil jarayonida ham kuzatish mumkin.

**Tengri** “Boburnoma”da “Alloh” so'zining sinonimi sifatida shaxsning sidqidildan e'tirofi berilgan o'rinlarda qo'llangan: *Tengri menga boshdin jon berdi* [Xolmanova, 2021: 178]; *Tengri taolokim, o'z kudrati komilasi bila har ishimni har mahalda andoqkim boyadu shoyad beminnati maxluq rost kelturubdur* (BN,72). Shuningdek, asarda mazkur teonim Tengriberdi, Tengriquli singari kishi ismlari tarkibida ham uchraydi: Ichkaridin Tengriberdi samonchikim, Sulton Husayn mirzoning rioyat qilg'on begi edi (BN,116); Tengriquli kemanding boshi sari tolbor bor edi (BN,310).

Qadimgi turkiy tilda, xususan, Kul tigin bitigtoshida tekshirilayotgan so'zning ilk shakli o'laroq, tängri varianti ikki ma'noda ishlatilgan: “ulug' tangri, xudo”; “falak, osmon”: *Tängri-täg tängridä bolmiş türük bilgä qağan* – Tangri(osmon)day, tangridan bo'lmish turk bilga (dono) xoqon (KT,1). Bu so'zning “xudo, iloh” ma'nosi turli dinlarda turlicha tushunilgan. Ko'k tangri diniy tushunchasidagi Kök tängri “ko'kdagi tangri”ni bildirgan. Moniylik dinida esa quyidagi tasavvurlar amal qilgan: *Kün Tängri – Quyosh tangri, Ay Tängri– Oy tangri, Yaşin Tängri - Yashin tangri, Yel Tängri – Yel tangri. Turk buddistlar tushunchasida Tängri tängrisi – Oliy tangri Buddadir. Musulmon turklarda Tängri –*

*Haq taolo(Alloh)dir* [Sodiqov, 2006: 181; Axatova, 2021; Yusupova, 2021]. Bundan tashqari, “Oltun (tusli) yorug‘” yodgorligi va Yenisey bitigtoshlarida leksemaning “hukmdor, janob”, “diniy” sememalari kuzatiladi: *Bu sabig‘ e‘shitip, men otrü olarqa inča tep tedim aya edgülärüm täñrilärüm* – bu so‘zni eshitib, ularga shunday dedim: “Ey mening yaxshilarim, hukmdorlarim!;” *Täñri elikkä elčisi ertim* – men diniy qabilalar uyushmasining elchisi erdim (DTS,544). “Devon” da quyidagi qaydlarni o‘qiymiz:

*Tün kün tapun täñrigä boynamağil  
Qorqup anjar eymänü oynamağil.*

Kecha-kunduz ulug‘ tangriga ibodat qil, yo‘ldan ozib adashma. Xudodan qo‘rq, undan uyal, undan qo‘rqib, o‘ynashdan saqlan. Xudo halok qilg‘ur kofirlar osmonni *täñri* deydilar, shuningdek, ular ko‘zlariga katta ko‘ringan har narsani, chunonchi, katta tog‘, haybatli yog‘ochni ham *täñri* deb ataydilar. Shuning uchun ham ular shunga o‘xshash narsalarga sajda qiladilar. Ular bilag‘on odamni *täñrigän* deb atashlari ham shundandir. Demak, Mahmud Koshg‘ariy qayd etilgan leksemaga “xudo”, “osmon”, “katta va haybatli narsa” ma’nolarini yuklagan.

S.Mutallibovning yozishicha, Mahmud Koshg‘ariyning *täñri* haqidagi izohini ikki xil tushunish mumkin:

Birinchidan, bu izoh XI asrda yashagan xalqlar tiliga emas, balki ancha qadimiy, ya’ni yer, ko‘k, quyosh, o‘tlarga topinuvchi shomonlik davridagi xalqlar e’tiqodiga doir ma’lumot hisoblanadi. Chunki Koshg‘ariy ko‘k so‘zi “osmon” ma’nosini ifodalashini ta’kidlagan, biroq uni tangri sifatida e’tiqod qiladilar deb uqtirmagan.

Ikkinchidan, uni XI asrda islomni qabul qilmaganlar shunday e’tiqod qilar edilar degan mazmunda tushunish mumkin. Bu variant yana ham yaqinroqdir, chunki Urxun yodgorliklarida ham shu tariqa e’tiqodni ko‘ramiz. Ularda olamning yaratilishi, diniy e’tiqodlarga oid ma’lumotlar kam bo‘lib, tangriga qulluq qilish, o‘lim, ta’ziyalar haqida so‘z boradi. Lekin unda yer, ko‘k, tangri deb izohlangan. Mahmud Koshg‘ariyning bu xil izohlari, bir tomondan, diniy e’tiqod tarixi haqida tadqiqot olib boruvchilar uchun muhim hujjat bo‘lsa, ikkinchidan, alloma o‘z asarida uzoq tarixiy voqealarni ham hisobga olganini ko‘rsatuvchi dalildir (MK,III,387-388).

Manbalarda bu so‘zning kelib chiqishi xususida turlicha qarashlar mavjud: 1) *täniz* “dengiz”; 2) *tañ* - “tong” va misr tilidagi ra –“quyosh”, ya’ni “tongdagi quyosh”; 3) *teñ* - “teng”, ya’ni “barchaga teng qarovchi”.

Kul tigin bitigida **ulus** so‘zi “шахар” ma’nosini voqelantirgan: *Quriya kün batsiqdaqı soğd bärčäkär Buqaraq ulus bodunta* – janubda kunbotardagi Sug‘d, Barchakar, Buqaraq ulusi (shahri) va xalqidan (KT,52). X asrga doir uyg‘ur yozuvi yodgorliklarida *uluš* shakli qo‘llanib, u qishloqqa nisbatan ishlatilgan (DTS,611). Mahmud Koshg‘ariy o‘z lug‘atida ushbu so‘zni shunday tavsiflaydi: *ulush – qishloq (chigilcha): Balasog‘un va ularning yuqori yonidagi arg‘ular tilida “shahar” demakdir. Shuning uchun Balasog‘un shahrini Quz ulush ham*

*deydilar* (MK,I,94). Alisher Navoiy asarlarida kalimaning dastlabki shakli, ya'ni *ulus* xalq, el, ommani ifodalagan:

*Jamolingda tahayyurg'a qoldi ko'z,  
Bu ma'nida ulus ichra tushti so'z* (ANATIL,III,562).

“Boburnoma”da *ulus* “el, xalq”, “jamo, guruh”, “jangchi, askar” sememalarida kelgan: *Samarqand hokimi ekan fursatlar o'zbekdin elchi kelur, o'zbek ulusida bu elchi zo'rg'a mashhur ekandur* (BN,76); *Samarqandni Iskandar bino qilg'ondur. Mo'g'ul va turk ulusi Semirqand derlar* (BN,102); *Bu tog'ning va bu noma'lum uluslarningkim, «kas» derlar, shimoli Tibet viloyatidur* (BN,365); *...boshlig'larga yetkuzgaylar va chun cherikni yurushda tartib berildi, bosh va boshlig'lar ulusi bilan borib, o'runlarig'a turdilar* (BN,490).

Demak, aytish mumkinki, *ulus* avval shahar, so'ngra qishloqni anglatgan bo'lsa, keyinchalik xalq, el, jamoa, guruh, jangchilar, askarlarga nisbatan qo'llana boshlagan. Ushbu sof turkiy leksema mo'g'ul tiliga *ulus* fonetik shaklida o'zlashgan hamda “yurt, el” ma'nosini anglatgan. XIII asrning 20-yillaridan keyin *ulus* istilohi qayd etilgan ma'nolarda turkiy tillar, xususan, o'zbek tiliga qayta kirib kelgan va faol ishlatilgan [Dadaboyev, 2017: 22].

“Boburnoma” asarida “xon qarorgohi, saroy”, “qo'shin tushgan joy, lager”, “shahar”, “joy nomi”, “kishi ismi” kabi sememalarda (BN,73,79,98,106,335) istifoda etilgan **ordu** atamasi birichi bor Kul tigin bitigtoshida “xon qarorgohi, saroy” ma'nosida qayd etilgan: *o'guz ya'gi ordu'g basdi* – o'g'uz dushman o'rdani bosdi (KT,48). Ko'k turk xatida yaxlit kitob holida saqlangan “Irq bitig”ida hamda Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig” dostonida (DTS,370) zikr etilgan ma'nosida uchraydi (DTS,370). Mahmud Koshg'ariy lug'atida bu so'zning “xon qarorgohi, saroy” (MK,I,145), “shahar” sememalari borligi ko'rsatib o'tilgan: *beg bir erig ordulandi* – bek bir yerni o'ziga shahar qildirdi (MK,I,291). Shu bilan birga, “Devon”da uning toponim va antroponim sifatida qo'llanishi ham tilga olingan. Ya'ni: *ordu* - Balasog'un yaqinidagi bir shahar; *Ordu känd* – Qashqar; *ordu bası* - shohlar xizmatidagilarning ismi (MK,I,145). Alisher Navoiy asarlarida mazkur kalima qarorgoh, qo'shin, askar turadigan lagerga nisbatan qo'llangan:

*Ul mahi xirgahnishinning ostonin mendin o'p,  
Ey Navoiy, har qachon mayl aylasang o'rdu sori*  
(ANATIL, III,611).

Professor Qosimjon Sodiqovning e'tiroficha, *ordu* so'zi bugun kunda ayrim otlarda uchrab turadi. Jumladan, hozirda Pokistonning davlat tili bo'lgan *urdu tili* eski o'zbek tilidagi *ordu* kalimasidandir. Bu atama boburiylar zamonida “o'rda tili, saroy tili” degan ma'noni anglatib, keyinchalik butun bir xalqning yozma adabiy tiliga aylangan. Mirzo G'olib ana shu tilda ijod qilgan. Yoki Toshkent shahrining qoq o'rtasida *O'rda* degan joy bor. Qachonlardir bu yerda xon o'rdasi joylashgan edi, *O'rda* oti o'shandan qolgan [Sodiqov, 2020: 127]. A.Baskakov-



ning izohiga ko'ra XIX asrda bu so'z orqali *Ordin* (orda + -in) degan ruscha familiya shakllangan [Baskakov, 1979: 250].

Professor Sh.Rahmatullayevning fikricha, *Ordu-orda* qadimgi turkiy tilda “tepaga harakatlan” ma'nosini anglatgan *or-* fe'li bilan *-(u)t* orttirma daraja qo'shimchasi va *-u* affiksidan hosil bo'lgan, keyinchalik ikkinchi bo'g'indagi tor unli talaffuz qilinmay qo'ygan; *t* undoshi *r* undoshining ta'sirida jaranglisiga, so'z oxiridagi *u* unlisi *ä* unlisiga almashgan: (*or-* = *ut* = *orut*) + *u* = *orutu* > *ortu* > *ordu* > *ordä*. (O'TEL,I,486). Bizning mulohazamizga ko'ra atama “tepalik” ma'nosini bergan qadimgi **or** so'zidan yuzaga kelgan, ya'ni balandlikka qurilgan qarorgoh.

Ilk bor Turfon matnlarida qayd etilgan “shahar” ma'nosini anglatuvchi **känd** (DTS,290) leksemasi “Boburnoma” tilida **kent** fonetik shaklida ko'zga tashlanib, “viloyat”, “shahar”, “qishloq” ma'nolarida qo'llangan: *Ulug'bek mirzo bu kentlarni Xuroson va Samarqand der ekandur* (BN,201); *Unvar kentigakim, Agradin yetti kuro'hdur, tushuldi* (BN,461); *...shahrda va kentlarda ko'p uylar hamvor bo'lub, uy va tom ostig'a qolib, o'lgan bisyor bo'ldi* (BN,224). Mahmud Koshg'ariy tadqiq etilayotgan leksema xususida quyidagilarni bayon qiladi: *Känd – o'g'uzlar va ular bilan yaqin turuvchilar tilida qishloq. Ko'pchilik turklar nazdida viloyatdir. Shuning uchun Farg'onani Özkänd – o'z shahrimiz deydilar. Samarqandni kattaligi uchun Semizkänd – semiz shahar deydilar. Buni forsiylar Samarqand tarzida qo'llaydilar* (MK,I,330). *Tärkän – Shosh (Toshkent) ning ismi. Uning asli Tash kand bo'lib, toshdan qurilgan shahar demakdir* (MK,I,414). Ma'lum bo'ladiki, qoraxoniylar davrida atama “qishloq”, “viloyat”, “shahar” ma'nolarini bildirgan. “Tafsir” asarida **kend** (39,17), **kent** (61,9) shakllarida “qishloq”, “shahar” semalarida ishlatilgan. “Guliston bit turkiy”da **kent** “shahar” ma'nosida kelgan: *Bir qul kentgä bardî* (30b1). Alisher Navoiy asarlarida “qishloq”, “shahar” ma'nolari ko'zga tashlanadi (ANATIL, II,108).

*Kändning* qaysi tilga oidligi xususida turli fikrlar mavjud. Masalan, ayrim manbalarda uning sug'd tiliga mansubligi qayd etiladi [DTS, 1969: 290; O'TIL, II: 353; Dadaboyev, 1991; Qorayev, 2005:36]. Mahmud Koshg'ariy esa bu haqda shunday yozadi: *Butun Movarounnahr, Yankanddan Sharqqacha bo'lgan o'lkalarni turk shaharlaridan deb hisoblashning asosi shuki, Samarqand, Semizkänd, Taškänd – Šaş, Özkänd, Tünkänd nomlarining hammasi turkchadir. Känd turkcha shahar demakdir. Ular bu shaharni qurdilar va shunday nom qo'ydilar. Hozirgacha ham shunday kelmoqda. Bu yerlarda forslar ko'paygach, so'ng ular Ajam shaharlari kabi bo'lgan* (MK,III,164). Qayd etilgan ma'lumotlar Movarounnahrning sanab o'tilgan o'lkalari turklar tomonidan bunyod etilgani, keyinchalik bu yerlarda forsiyzabonlar nufuzining ham oshganligi, joy nomlarining esa forscha atab ketilganidan dalolat beradi [Sodiqov, 2006: 46]. “O'zbek xalq shevalari lug'ati”da qayd etilishicha, Janubiy Xorazm va Qoramurt shevalarida atamaning **kənt** (O'XShL,141) varianti “qishloq, aholi punkti” qo'llanadi. Bu kalima hozirda turk tilida *kent* tarzida “shahar”ni ifodalasa

[Yusupov, 2018: 325], ozarbayjon tilida esa uning *känd* shakli “qishloq” [Azərbaycanca-özbəkçə özbəkçə –azərbaycanca lügət, 2019:128] ma'nosini anglatadi.

“Boburnoma”da beg kalimasi “viloyat hokimi”ni ifodalagan: *Avoyil muhrdor edi, avosit bek bo'lub, necha mahal Astrobodta hukumat qildi* (BN,240). Kul tigin yodnomasida kelgan uning dastlabki **bäg** shakli “bek, hukmdor” ma'nosini bildirgan: *bägläri bodunü tüzsiz üçün* - beklari, xalqi insofsiz [bo'lgani] uchun (DTS,91). Ushbu so'z **šadapit bäglär** birikmasi tarkibida kelib, turk hoqonligidagi yuqori martaba, unvonni ifodalagan: *biryä šadapit bäglär, yiryä tarqat* - o'ngdagi shadapit beklar, chapdagi tarxonlar (KT,1). Shuningdek, yangi so'z yasash uchun asos vazifasini o'tagan: *bäglük urü oğluş qul bolti* (KT,24). Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lug'otit turk” asarida *bäg* “bek”, “er, turmush o'rtoq” sememalarida qo'llangan: *bäg añar ot berdi* – bek unga zahar berdi; *Yavlağ tilliğ bägdän kärü yalişus tul yäg* – tili yomon so'kag'on erli bo'lgandan ko'ra bevalik yaxshi (MK,III,147). O'zbek ayollarining erlariga nisbatan *begim* tarzida murojaat etishi aynan ikkinchi ma'no nuqtai nazaridan reallashgan (Abdulla Qodiriyning “O'tkan kunlar” asarida Kumushning Otabekka murojaatini eslang). Shu o'rinda ilk eski turkiy tilda *beg* leksemaasi ifodalagan oliy mansabni faqat erkaklargina egallashgani, unga -ach kichraytirish affiksi qo'shilib, “kichik bek” ma'nosini anglatgan *begach* terminining yuzaga chiqqanini qayd etish maqsadga muvofiq [Dadaboyev, 2017: 41].

Ko'k turk xoqonligi harbiy-ma'muriy qurilishida faol iste'mol qilingan *beg* istilohi Amir Temur, Temuriylar va o'zbek xonlari davlatida “hukmdor, mansabdor, to'ra, janob” ma'nolarini anglatgan.

Oltin O'rdada: 1) ulus, o'lka, viloyat beklari; 2) unvonli, unvon olgan beglar; 3) harbiylar (tumanbegi, mingbegi, yuzbegi, o'nbegi); 4) noharbiy (shahar) beglar toifasi mavjud bo'lgan. O'zbek xonliklarida *beg* muayyan hududiy birlikning harbiy va fuqarolik masalalari bilan shug'ullangan [Dadaboyev, Yodgorov, 2021: 23-24]. Alisher Navoiy asarlarida “bek, amaldor” ma'nosini anglatgan:

*O'zi shahlar aro xayli nubuvvatda Muhammaddek,*

*Va lekin beglar oning ollida payg'ambar as'hobi* (ANATIL,III, 596).

Bu so'z qadimgi turkiy tilda *beg* shaklida ishlatilgan bo'lib, “katta”, “yirik” kabi ma'nolarni anglatgan; ma'no taraqqiyoti natijasida sifat otga aylangan; g undoshi *k* ga almashgan (O'TEL,I,43). N.Baskakov ning ta'kidicha, XVII asrda rus tiliga o'zlashgan mazkur so'z o'sha davrda dastlab *Bexteev* (beg-bek + tey “day, dek”+ -yev), *Bekbegov* (beglär begi “viloyat va katta shaharlar hokimi”+ -ov), *Kotlubiskiy* (qutlu bek-bey-biy + -sk + -iy), XIX asrga kelib esa *Begildeev* (bek + keldi + -yev) familiyalarining asosida ko'zga tashlangan [Baskakov, 1979: 181, 187, 238, 253].

**Qarluq** “Boburnoma” ular yashaydigan joyga, shuningdek, qarluq qavmiga mansub kishilar nomi bilan yonma-yon qo'llangan: Tatarning yerining oti Parhola



edi, qorluq tog'din xeyli quyiroq edi; Sangar qorluq va Mirza Malviy qorluq boshliq o'ttuz-qirqcha kishi qorluq uluqlarni olib keldilar (BN,311,315). Kul tiginda turkiy qabilalardan birini bildirgan: *Kül tigin yäti otuz yaşına Qarluq bodun ärür barur ärkäli yaği bolti* - Kul tigin yigirma yetti yoshida Qarluq xalqi begonalashib ketgach dushman bo'ldi (KT,41). Mahmud Koshg'ariy qarluqni turklardan bir guruhi. Ular ko'chmanchi bo'lib, o'g'uzlardan boshqa, ular ham turkmandir, deb izohlaydi (MK,I,439). “Devon”da keltirilgan ma'lumotlar qarluqlarni yetakchi qabila tariqasida emas, aksincha ularni boshqa qabilalarga tobe qabila, turkmanlarning bir toifasi sifatida ko'rsatadi. Tarixiy asarlarda qarluqlarning boshqa qabilalarga qaraganda mashhurroq ekaniga e'tibor qaratsak, devon yozigan davrga kelganda ularning ikkinchi darajali qabilalarga biriikib ketgani anglashiladi (MK,I,498]. Ehtimol, bu davrga kelib, qarluqlar o'zlarining yetakchi qabila sifatidagi ilgarigi mavqeini yo'qotgandir. Lekin ikki-uch joyda *qarluq turkmanlari* degan birikma qo'llanadi (MK,I,72;120). Bundan ko'rinadiki, muallif turkmanlar tarkibida yashovchi qarluq qabilasining ayrim guruhlarini nazarda tutgan bo'lishi ham mumkin.

Mirzo Ulug'bekning “To'rt ulus tarixi” kitobida qarluqlarning kelib chiqishi borasida shunday mulohaza tilga olinadi: *O'g'uzxon G'o'r sarhadidan Turon zamin tomon yo'lga chiqqanda qish juda sovuq kelgan edi. Dashtu sahroni qor tamoman qoplab olgandi. U buyurdiki, hech kim lashkardan orqada qolib ketmasin. Ammo, qor ko'pligi va sovuqdan ba'zilar lashkardan orqada qolib ketdilar. O'g'uzxonga bu ma'lum bo'lgach, yana farmon berdi. Ularni topib keldilar. So'roqlaganlari bilan, baribir, qolib ketganlar bo'ldi. Surishtirib, qolganlarga qorliq deb nom berdi* (TUT,51). Qarluq qabilasi haqida keyingi davrlarda yaratilgan manbalarda ham ko'plab ma'lumotlar mavjud. Masalan, Abulg'oziy Bahodirxon qo'yidagilarni qayd etadi: *Turk elinda ul el otini ko'targan besh uruq turur teb, uyg'ur, qiniqli, qipchaq, kalach, qorluq. Qarluq eli Mo'g'ulistonda berk tog'larning ichinda yurt qilib o'ltururlar, ekin ekarlar erdi va mollari bo'lur erdi. Bir yaxshisini podshoh ko'tarib, ul o'lsa yana birisini va ko'p ermaslar edi. Goh tuzuk bo'lganda ikki ming evlik bo'lur edi* (ShT,31,32).

Kul tigin bitigtoshida **äkä** leksemasi “opa”ni ifodalagan: *ögälärim, äkälärim, käliñünüm, qunçuylarim* – onalarim, opalarim, kelinlarim, xonzodalarim (KT,49). Yenisey, Turfon matnlari, “Oltun yoruq” asarida ham ayni shakl va semani ko'ramiz: *äkä baltir birgärü* – opa va kichik kelin (qayinsingil) bir joyda yoki birgalikda (DTS,167). “Devonu lug'otit turk”da quyidagi izohlarga duch kelamiz: *Erkaklarning o'zidan kichik qiz ukasiga siñil, o'zidan katta qiz birodariga äkä deyiladi; xotinning o'zidan kichik qiz birodariga baldiz, o'zidan kattasiga äkä deyiladi* (MK,III,13); *äkälädi* (أكالادی) – opa deb yuritdi, opa deb atadi. *Ol anı äkälädi* – u uni katta opa deb yuritdi (I,302).

Mamluklar davrida, ya'ni XIV asrda bitilgan “Attuhfa” asarida *äkä* “amma” ma'nosini ifodalash uchun xizmat qilgan (24b10). Alisher Navoiyning “Majolisun-nafois” tazkisasi hamda Abulg'oziy Bahodirxonning “Shajarayi turk”

asarida zikr etilgan atama o'zidan katta erkak qardoshga nisbatan ishlatilgan: *Mavlono Mahramiy... xoja Mansurning akasidur* (ANATIL,I,72); *Axir bir kun Shaybanxon akasi Sayinxong'a aytdi* (ShT,112). “Boburnoma”da o'zining dastlabki ma'nosida istifoda qilingan: *Poyanda Sultonbegimni «aka» der edim, Habiba Sultonbegim- ni «yanga» der erdim* (BN,266). Ko'rinadiki, o'rganilayotgan so'z XV asrning oxiri – XVI asrda ham akaga, ham opaga nisbatan qo'llana boshlagan. So'ngra XVII asrning ikkinchi yarmiga kelib, butunlay ulug' erkak qardoshni ifodalashga o'tgan. *Aka-əkə-əkə* Buxoro, Qarshi, To'rtko'l, Xiva, Toshkent shevalarida “aka” ma'nosini bildirsa, Shimoliy Xorazm, Turkiston, Gurlan shevalarida *əkə* shakli otani anglatadi (O'XShL,325).

Čerig termini Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig” hamda “Boburnoma” asarlarida “qo'shin, lashkar” ma'nosida uchraydi: *Yüräksiz kişilär čerig artatur – yuraksiz (qo'rqoq) kishilar qo'shinni zaiflashtiradi* (DTS,144); *Necha navbat Samarqand ustiga cherik tortti, ba'zi mahal shikast topti, ba'zi mahal bemurod yondi* (BN,60). Uyg'ur yozuvidagi budda manbalarida **sü čerig**, “Qutadg'u bilig” asarida **čerig sü** juft so'zlari “lashkar” ma'nosini ifoda etgan (DTS,41).

“Devon”da *čärik* “jang, urush safi”, “har narsaning ro'parasi, vaqti”(o'g'uzcha) ma'nolarini anglatgan: *Alp čärikdä, bilgä tirikdä – botir jang alangasida sinaladi, dono majlisda* (MK,I,144;369). Leksema XIV asr Xorazm manbalarida o'zining asl ma'nosida qo'llanilgan: *Muhammad qalın čerig birlä keldi* (NF, 20b11). Istiloh Alisher Navoiy asarlarida “qo'shin, lashkar. askar”, “kuch-qudrat” ma'nolarini anglatish barobarida *čerigči* (jangchi; lashkarboshi), “Boburnoma”da esa *čerig begi* (lashkarboshi, qo'mondon; THTL,49) singari yangi so'zning shakllanishi uchun asos vazifasini o'tagan (ANATIL,III,463-464). Ayrim manbalarda bu so'zning sanskrit tilidan o'zlashganligi qayd etiladi (DTS,144; O'TIL,IV,475). Biroq bu masalaga Mahmud Koshg'ariyning quyidagi fikrlari oydinlik kiritadi degan umiddamiz: *čär – ro'para(o'g'uzcha): Aniñ äwi bu čärlikdä – uning uyi bu narsaning ro'parasidadir. Ikki askar safiga ham čärik deytilar. Chunki ular ham bir-biriga ro'para turadilar* (MK,I,312-313).

“Boburnoma” tilida “bulbul” ma'nosi **sandug'och** zoonimi bilan ifodalangan: *Yana bir kushkinadur, uluqlug'i sandug'ochcha bo'lg'ay, xushrang qizildur, qanotlarida ozroqcha qoralari bordur* (BN,375). Ushbu so'zni birinchi marta Yusuf Xos Hojib o'z asarida **sandiwač//sanduwač** shakllarida keltirib o'tgan: *Sariğ sanduwač... sayradī* (DTS,484). “Devon”da **sanduwač** varianti uchraydi: *Tatliğ ötär sanduwač – bulbul yoqimli sayraydi* (I,481). Qutbning “Xusrav va Shirin” asarida **sanduwač** (53b12), **zanduwaj** shakllari ifodalangan: *Körär kim tağ üzrə xuş çečäklär açilmiş zanduwajlar qarşu sayrar* (14a6). Tekshirilayotgan leksema keyingi davr manbalarida qayd etilmaydi. Ayni paytda, “Qisasi Rabg'uziy”da leksemaning arabcha **bulbul** sinonimi ham kuzatiladi: *Qumri, bulbul muqri bolib ün tüzär tün-kündüzi* (68v5). Bu so'z hozirgi o'zbek adabiy tilida ham mazkur ma'noda ishlatiladi. Ma'lum bo'ladiki, **bulbul** istilohi



XIV asrda dastavval **sanduwač** zoonimiga ma'nodosh sifatida qo'llanilgan bo'lsa, so'ngra uning o'rnini butunlay egallagan.

Uzun so'zning qisqasi, tilning so'z boyligini diaxron aspektida o'rganish til faktlarining taraqqiy etish usullarini aniqlash uchungina emas, ayni paytda, uni yaratgan xalq tarixini tadqiq qilish uchun ham alohida ahamiyatga ega. Demak, har bir tilning tarixi shu tilga mansub xalq o'tmishi bilan bog'liq. Xalq tarixida nimaiki yuz bersa, tilga ozmi-ko'pmi o'z ta'sirini o'tkazadi. Bu, eng avvalo, tilning lug'at boyligida sodir bo'ladi. Shu ma'noda, “Boburnoma” tilini qadimgi turkiy va eski turkiy til yodgorliklari, eski o'zbek tili, hozirgi o'zbek adabiy tili, shevalarimiz, ayni paytda, qardosh tillar so'z boyligi bilan chog'ishtirib tahlili qilish ular o'rtasida yaqinlik va ba'zi farqlar borligini, lekin bu ularni bir-biridan ayiruvchi emas, balki yaqinligini ifodalovchi tafovutlar ekanini ko'rsatdi.

Ikkinchidan, ushbu manbalarning turli davrlarda bitilishiga qaramasdan, ayrim so'zlar ayni shakl va ma'noda, ba'zilar juz'iy o'zgartirishlar bilan yetib kelgan, shuningdek, bugun qardosh turkiy tillar va shevalarimizda qo'llanishda davom etayotgan atamalar ham yo'q emas.

Uchinchidan, tahlillardan ma'lum bo'ldiki, “Boburnoma”da qo'llangan so'zlarda ma'no kengayishi va ma'no torayishi kabi semantik hodisalar ro'y bergan. Bu jarayon tilning o'z ichki qonuniyatlariga muvofiq holda kechgan.

## SHARTLI QISQARTMALAR

**ANATIL** – Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати . I-IV. – Тошкент: ФАН, 1983-1985.

**BN** – Бобурнома. -Тошкент: Шарқ, 2002.

**DTS** – Древнетюркский словарь. –Л.: Наука, 1969.

**КТ** – Рустамий А. Сайланма/2-жилд/ Туркий тил махзани/ - Тошкент: Zilol buloq, 2022.

**МК** – Махмуд Қошғарий, Девону луғотит-турк/Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М. Муталлибов. Т. I-III. – Тошкент: ФАН, 1960-1963.

**Tafsir** – Бороков А.К. Лексика среднеазиатского тefsира XII-XIII вв. -М.: Изд-во восточной лит-ры, 1963.

**SHT** - Абулғозий. Шажарайи турк. – Тошкент: Чўлпон, 1992.

**ESS** – 1) Севортян Э.В. Этимологический словарь тюркских языков: Общетюркские и межтюркские основы на гласные. –М.: Наука, 1974.

2) Севортян Э.В. Этимологические словарь тюркских языков: Общетюркские и межтюркские основа на букву “Б”. –М.: Наука, 1978.

3) Севортян Э.В. Этимологические основы на буквы “В”, “Г”, “Д”. – М.: Наука, 1980.

**О'ТИЛ** – Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I-V. -Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006-2008.

**О'TEL** –Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. –Т.: Университет, 2000. I – 599 б; 2001. II– 599 б; 2009. III – 284 б

**O'XSHL** – Ўзбек халқ шевалари луғати. – Тошкент: ФАН, 1971.

### ADABIYOTLAR:

1. Azərbaycanca-özbəkçə özbəkçə –azərbaycanca lügət. –Bakı, Savad, 2019. – B.128.
2. Ахатова М. Ўзбек тили тасаввуфий лексикасининг систем тадқиқи. филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)... дисс. автореф. – Тошкент, 2021.
3. Dadaboyev H., Yodgorov H. O'zbek harbiy terminologiyasi. Toshkent: SANHOIF, 2021. –B. 23-24.
4. Yusupova N. Türkçe – Özbekçe sözlük. – Ankara, 2018. –B. 325.
5. Баскаков Н. А. Русские фамилии тюркского происхождения. — М.: Наука, 1979. –С. 181,187, 238, 250, 253.
6. Дадабаев Х. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв. –Т.: Ёзувчи, 1991.
7. Дадабоев Х. “Девону луғотит турк”нинг тил хусусиятлари. – Тошкент: Тошкент давлат шарқшунослик институти., 2017. –Б. 22, 41.
8. Древнетюркский словарь. –Л.: Наука, 1969. –С. 290; Ўзбек тилининг изоҳли луғати. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. Т.II. –Б.353.
9. Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005. –Б. 36.
10. Содиқов Қ. Эски ўзбек адабий тили. –Т.: Akademnashr, 2020. –Б. 127, 155.
11. Содиқов Қ. Туркий ёзма ёдгорликлар тили: адабий тилнинг юзага келиши ва тикланиши. –Т.: Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2006. –Б. 181.
12. Содиқов Қ. Туркий ёзма ёдгорликлар тили: адабий тилнинг юзага келиши ва тикланиши. –Т.: Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2006. – Б. 46.
13. Холманова З. “Бобурнома” – тил қомуси. –Тошкент: Akademnashr, 2021. –Б. 178.
14. Юсупова Ш. Диний матнларнинг лингвопрагматик тадқиқи. филологияфанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)...дисс. –Фарғона, 2021.
14. B Abdushukurov, L Sindorov The Phenomena Of Semantic Widening And Narrowing In “Hibatul-Hakayik” - THE AMERICAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE ..., 2020
15. B Abdushukurov, L Aralova Turkish assimilation words in Russian language - Asian Journal of Multidimensional Research, 2021
16. B Abdushukurov GENEALOGIC ANALYSIS OF THE VOCABULARY OF «QISASI RABGHUZI». - Theoretical & Applied Science, 2020